

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
U.N.Olimov	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi	336
M.Q.Tolibboyev	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analarga doir mulohazalar	340
X.S.Jumanazarov	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
Sh.N.Jo'rayev	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'рни.....	351
O.M.Normatov	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
D.G'.Mirzayev	
"Turkiston viloyatining gazetasi" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili	361
A.O.Toirov	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
P.A.Nabiyev	
"Farg'ona vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)"	373
A.A.Mamadjanov	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili	378
P.A.Арслонзода	
Тасвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айни	382

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir.....	389
Z.J.Pardayeva	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman	393
H.Jo'rayev	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'рни.....	401
K.A.Jamahmatov	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi	404
X.Jo'rayev, M.Ismoilova	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi	410
I.I.Rustamova	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini	413
M.A.Jo'rayeva	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti	417
M.Islomova	
Taqlid va Tasvir	421
D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov	
Isajon Sulton hikoyalarda shamol timsoli.....	424
X.T.Мирзаев	
Талқини рукноҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Фиёсиддин	428
N.Q.Bo'riyeva	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
M.Sh.Dehqonova	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
G.A.Mashrapova	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
Q.V.Yo'lchiyev	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili	449
B.N.Isakova	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati	456



UO‘K: 821.512.133+372.882

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA SHAMOL TIMSOLI

СИМВОЛ ВЕТРА В РАССКАЗАХ ИСАЖОНА СУЛТАНА

THE SYMBOL OF THE WIND IN THE STORIES OF ISAJON SULTAN

Gafurova Dilobar G‘ayrataliyevna¹ ¹Farg‘ona davlat universitetining doktorantiQayumov Abdurahob Abdurashidovich²²Farg‘ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti**Annotatsiya**

Maqolada Isajon Sulton hikoyalarida shamol detali orqali tasvirlangan timsollar yoritib berilgan. Ma‘lumki, peyzaj badiiy asar mazmun-mohiyatini yoritish, voqealar tizimi, syujet tarkibida muhim ahamiyat kasb etadigan asosiy komponentdir. Shamol peyzajning bir qismi sifatida asarga kirib kelishi va muallif maqsadiga muvofiq turli vazifalarni bajarishi mazkur maqolada ko‘rsatib berilgan. Shamolning hamma makon va zamonga xoslik xususiyatidan kelib chiqib uni ijodkorning cheksiz badiiy imkoniyatlaridan deysish mumkin. Xususan, shamolning muhabbat, kuch-qudrat, taqdir, jamiyatdagi insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlari, ruhiyziroblar, konfliktlarni shamol, bo‘ronlar timsolida aks ettirishi adibning “Shamolli kecha”, “Oydinbuloq”, “Sofiya”, “Tilsim lashkari” hikoyalari misolida atroflicha tahlil qilingan.

Abstract

This article lists the emblems depicting Isajon Sultan in the stories of Shamol. As you know, landscape is the main component that plays an important role in highlighting the content of a work of art, in the system of events, and in the plot structure. This article shows how the wind penetrates the work as part of the landscape and performs various tasks in accordance with the author’s purpose. By the nature of the wind’s identity with space and time, it can be said that it comes from the infinite artistic possibilities of the Creator. In particular, the images of the wind in love, strength, fate, relationships of people in society, reflection of spiritual passions, conflicts in the image of the wind, storms are analyzed in detail on the example of Adib’s stories “windy night”, “Aidinbulak”, “Sofia”, “army of talismans”.

Аннотация

В этой статье перечисляются эмблемы, изображающие исаджана султана в рассказах о Шамале. Как известно, пейзаж-это основная составляющая, которая играет важную роль в освещении содержания художественного произведения, в системе событий, сюжетной структуре. В этой статье показано, как ветер проникает в произведение как часть пейзажа и выполняет различные задачи в соответствии с авторской целью. По характеру тождества ветра с пространством и временем можно сказать, что он исходит из безграничных художественных возможностей Творца. В частности, детально проанализированы на примере рассказов Адиба “ветреная ночь”, “Айдинбулак”, “София”, “армия талисманов” образы ветра в любви, силе, судьбе, взаимоотношения людей в обществе, отражение душевных страстей, конфликтов в образе ветра, бури.

Kalit so‘zlar: hikoya, shamol detali, Shamolli kecha, Oydinbuloq, Sofiya, Tilsim lashkari, ramziy timsollar talqini.

Key words: plot, wind detail, Windy night, Aydinbulok, Sofia, Tilsim lashkari, interpretation of symbolic symbols.

Ключевые слова: сюжет, деталь ветра, Ветреная ночь, Айдинбулок, София, Тильсим лашкари, интерпретация символических символов.

KIRISH

Zamonamiz yozuvchilarining badiiy asar yaratishdagi izlanishlari bu jahada turli yo‘nalishlarning yuzaga chiqarib, o‘zbek adabiyotining tadjriiy taraqqiyotida muhim evrilishlarni maydonga keltirmoqda. Nasrdagi yangicha uslub va yondashuvlar muallif dunyoqarashi, kayfiyati, ruhiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Ijodkorning adabiyotda yangilik yaratishi, tafakkurida o‘zgarishlar qilishi, an‘anaviy fikrlashdan chekinib, noodatiy qarashlarni sinab ko‘rishga intilishi mazkur sohaning rivojlanishi uchun ahamiyatlidir. Isajon Sulton asarlaridagi falsafiy qarashlar, komillik sari

ADABIYOTSHUNOSLIK

borayotgan qahramonlar ruhiyatida kuzatiladigan katarsis holati, noreal makonlar tasviri, inson va tabiat uyg'unligi ijodkorning badiiy mahoratidan dalolat beradi.

Adib asarlarida g'oyaning falsafiy ma'nolari chuqur ask etadi. Hikoyalaridagi har bir elementar detalgacha muayyan mazmuniy yukni tashiydi. Hech qanday belgi, detal, peyzaj shunchaki tasvir uchungina berilmaydi. Buning zamirida ma'lum maqsad, asar badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiluvchi vosita bor. Bunda shamol bilan bog'liq tasvirlar yozuvchi poetik olamining eng yorqin nuqtalaridir. Chunki aksariyat asarlarda shamol(detall, obraz, motiv) bilan bog'liq lavhalar bo'rtib ko'rinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

I.Sulton hayoti va ijodiy faoliyati so'nggi yillarda adabiyotshunoslar, ilm va ijod ahli diqqat-markazida bo'lib kelmoqda. Professor Y.Solijonovning "Shamol yo'li: Detaldan obrazgacha" maqolasida yozuvchining "Avazboylik tantilar", "Tod", "Xun" kabi bir qator asarlari tahlil qilinadi, ularda ko'ringan shamolning xususiyatlari muhokamaga tortiladi:

"Mazkur hikoyalarda biron marta ham shamol yoki yomg'irga oid so'z yoki sinonim ishlatilmaydi, ammo tasvirlanayotgan voqelik yo'nalishi, personajlar so'zlashuvdagi ohang, iboralarning keskinligi yoki sarhadsizligida aynan shu tabiat hodisalarining shiddati, past-baland esishi, shovullashi, tomchilashi eshitilib, sezilib turgandek tuyuladi"[2].

Shamolning hamma zamon va makonga taaluqli bo'la olishi muallifga cheksiz imkoniyat eshigini ochadi. Tadqiqodchi H.Abdulxamidova "Isajon Sulton romanlarida xronotop" mavzusidagi dissertatsiyasida muallif asarlarida zamon va makonda kechuvchi ramzlar negizida olam va odamni anglash bosqichlari, qahramon yetib borgan manzilning badiiy-falsafiy qiymati haqida atroflicha tahlil olib boradi. "Shamolli kecha", "Oydinbuloq", "Sofiya", "Tilsim lashkari" kabi bir qator hikoyalarida shamol asar mazmunini ifodalash, qahramonlar ruhiyatini yoritishda muhim rol oynaydi.

"Shamol obrazi Isajon Sulton asarlarida goh oddiy tabiat hodisasi sifatida uchrasa, goh ramziylik kasb etadi"[3].

Masalan, "Shamolli kecha" hikoyasidagi cho'lda ro'y berayotgan kuchli shamol, to'zon o'rtasiga tushib qolgan aka-singil qismati orqali jamiyatda, oilada, insonlar qalbida bo'layotgan bo'ronni ifoda etadi. "Oydinbuloq" hikoyasi esa shamoldagi donishmandlik, hakamlik xususiyatlarini bir yaproqqa bitilgan shamol dastxati vositasida ko'rsatadi. Yigitlikning navqiron pallasida "bu kunlar sharaflidir", deb hukm etgan shamol, inson umri manzilga yaqinlashib borayotgan, kuchdan qolib, yashash zavqi tark etayotgan, xushbaxtlik o'rnini afsus-nadomatga bo'shatayotgan kunlarda yaproqdagi dastxatni qayta yozadi: "bu kunlar zavollidir". Bu bilan shamol inson umri ikki yaproqning uzilishi qadar qisqa ekani, yoshlik davrida, vujudidan kuch-g'ayrat yog'ilib turgan vaqtda orzu-istaklariga yetishish uchun harakat qilmagan, baxtni o'z qo'li bilan yaratmagan inson umr bo'yi bu armondan qutula olmasligi, yillar bo'yi qalbiga ko'mib, xaspo'shtlab yashasada, hayotining qaysidir pallasida o'sha armoniga duch kelib qolganda, qalbidagi og'riq kuchayib o'zini oshkor qilishini ta'kidlaydi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

"Sofiya" hikoyasi butunlay shamolga bag'ishlangan. Hikoya boshdan oxirigacha shamolning xususiyatlari: yoqimlilik, go'zalligi, maftunkorligi shuningdek xavfliligi, qudratli kuch ekani haqidagi haqiqatlar ustiga qurilgan. Shu qadar go'zalki, shiddati ham maftun etadi. Beshavqatligi bilan yeru ko'kni ostin-ustun qiladi, daraxtlarni tomiridan sug'urgan, pishib ulgurmagani mevalarni duv-duv yerga to'kib, shoxlarini sindirgan bu shamolga negadir yozuvchi ijobiy nazar tashlaydi, asar qahramoni timsolida shamolga maftun bo'ladi, oshiq mahbubasiga qaraganday suqlanib uning harakatlarini kuzatadi:

"Jilvalariga mahliyo bo'lib turib qoldim. Mana qanaqa ekansan sen-Sofiyam mening"[4].

Shamolning nomi Sofiya deb berilishi ham o'ziga xos ma'no-mazmun kasb etadi. Sofiya ayol kishining ismi bo'lishi orqali ayoldagi erkalik, o'ynoqlik, nozlilik kabi xislatlar bevosita shamolga ko'chadi:

"Ajab erkakliklari ajoyib nozlar ila namoyon bo'ldi bu to'fon"[5].

Ishq dunyosining yozilmagan qonuniyatlariga ko'ra, mahbuba qancha ozor bermasin, ko'ngilni parchalamasin, oshiqning unga bo'lgan munosabati o'zgarmaydi, yanada kuchliroq bog'lanib boraveradi. Chunki bu tuyg'u insonga bo'ysunmaydigan, uning istagicha harakat

etmaydigan ilohiy tuyg'udir. Hikoyada muallifning shamol orqali ifodalamoqchi bo'lgan tilsimi-Muhabbat. Kishining ichki olamiga, o'zigagina qarashli bo'lgan dunyosiga bo'ron, to'fon kabi bostirib kirib keladigan, uning qarashlarini, o'y-fikrlarini ostin-ustin qiladigan, butun borlig'ini qamrab shiddat bilan yoyilib, o'zidan boshqa hech narsaga o'rin qoldirmaydigan go'zal va beshafqat hissiyot. Shamol yeru ko'kni qanday vayron qilsa, muhabbat inson ruhini shunday dolg'alantiradi. Uning manzili ko'ngil, istagan vaqt istagan ko'ngilga kira oladi. Bu yerda "bo'lishi mumkin emas", degan fikrga hojat qoldirmaydi:

"To'fonlar dengizlarning yuzalarida ro'y beradi. Mening elimda ummonlar yo'q. Men tug'ilib o'sgan joylar- so'lim daraxtzor vodiylar. Jannat vodiylari desam ishoning. Qilni qirq yoradigan meteoxizmat hamma narsa aniq, orasta, o'lchov bilan tartiblangan elimga kutilmaganda Sofiya to'foning kirib kelishidan ogahlantirmoqda"[6].

Ushbu parchaning ramziy ifoda etayotgan ma'nosiga ko'ra o'girib qayta yozganda taxminan shunday jumla xosil bo'ladi:

"Muhabbat hissiyotli va ta'sirchan qalblarning hamrohidir. Mening qalbim esa doimo osoyishta va sokinlikka o'rgangan. Shiddatli tuyg'ulr unga begona. Ammo bu kun ruhimda bo'layotgan o'zgarishlar, tomchilab yuragimni kuydirayotgan cho'g'lar kutilmaganda qalbimda muhabbat alanga yoqishidan xabar bermoqda.."

Real makonda shamollar yuz berishi tabiat hodisasi. Inson ruhiyatida kechadigan shamollar ham borki, har ikki shamolning farqli va mushtarak tomonlari mavjud. Ya'ni real makondagi hodisalar ijodkor loyabatoriyasida qayta ishlanib hayoliy makonlarga ko'chib o'tishini ko'rish mumkin:

"Real makondan qahramonlarning ong oqimi, tafakkuri, tasavvuri makoniga tomon kengayish ham ko'zga tashlandi. Bu orqali romanchilikda makon tushunchasi avvalgi doirasidan kengroq diapazonda o'zini namoyon qilishi qahramonlarning qismatga munosabati orqali ifodalanadi"[7].

Olam shamoli borliqni larzaga keltirib uchragan narsani to'zonga o'rab uchiradi, uning shiddati tabiatdagi besaramjonlikda ko'rinadi. Inson ichidagi bo'ron, shiddatli bosqi tashqi qiyofasida, gap-so'zida tafovutlarni yuzaga keltiradi.

"U essa yurtda nimadir o'zgaradi.."

Ishq shamoli esa boshlagan ko'ngilda ham tasodifiy o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

"Tilsim lashkari yohud Muqanna" hikoyasida ham shamol syujetning asosiy markazida harakat qiladi, asar strukturasida muhim komponent funksiyasini bajaradi. Mazkur hikoyada shamol "Sofiya" dan farqli ravishda mislsiz kuch-qudrat timsoli sifatida keltirilgan. Hikoya boshlanishida kechga yaqin tobora kuchayib borayotgan shamol tasviri o'quvchida hozir qandaydir sirli, tahlikali, shiddatli hodisalar ro'y berishi kabi tasavvur uyg'otadi. Shamolning avjiga chiqishi va keksalar tarafidan "Jodu shamoli" deb atalishi, uning yilda bir bo'lib, olamning to's-to'palonini chiqarishi va u nihoyat jodu shamoli haqidagi rivoyat hikoyaga qo'rqinch va hayajon ruhini singdiradi. Bu hayajon va vahima kitobxonni asarni ichiga sho'ng'ib ketishiga sabab bo'ladi. Muallif shamol orqali juda muhim sirni pichirlab aytayotgandek tuyuladi, butun diqqatni rivoyatga qaratadi.

Hakim ismli dehqon yigitning shamolli kechada nom-nishonsiz yo'qolishi va bir yil o'tgach, shamolli kecha uyiga qaytishi, uning tilsim lashkarining chiqib kelishi, ulkan va qudratli qo'shin, nurli jamol sohibi bilan uchrashgani haqidagi hikoyasi, yuzidagi niqob va bular olamni shamol boshqargan tunda sodir bo'lgani, shamolning lashkarga xizmat qilishi kabi mistik hodisalar, turli ilohiylashgan xalq rivoyatlari talqinidagi yozuvchi badiiy hayolotining maxsuli deyish mumkin. Muallif asarlari yangicha, zamonaviy yo'nalishda yaratilgan bo'lsa ham, genezisi xalq og'zaki ijodi, mifologiyasiga borib taqaladi. Asarning g'oyaviy mazmunini ochib berishda yozuvchi xalq rivoyatlariga tayanadi.

Arablarga qarshi xalq ozodligi harakati rahnamosi bo'lgan Muqannaning qo'shini ko'rsatgan qahramonliklar, dushman qo'lga asir tushishdan ko'ra o'zini olovga otib xalok bo'lishni avzal ko'rgan bahodirning abadiy tirik ekani, shiddatli shamol qudrati ular qudratini aks ettirishi va bir kechada butun olamni ostin-ustun qilishi orqali yozuvchi xalq qahramonlarning o'lmas yodi abadiy barhayot qolishini ta'kidlaydi. Ya'ni xalq orasida rivoyatga aylanib ketgan Muqanna vatandoshlari uchun mag'lub emas, hamisha g'olib, muzaffar bo'lib qolaverishi, Vatan uning qahramonliklarini unutmazligi uqdiriladi. Hikoyada Muqanna va uning safdoshlari xotirasiga chuqur ehtirom

ADABIYOTSHUNOSLIK

ko'rsatadi. O'quvchi asarni o'qish davomida beixtiyor Muqanna bilan bog'liq "oq kiyimlilar" qo'zg'olonini qayta ko'rib chiqadi, bu boradagi bilimlarini mustahkamlaydi, ajdodlariga nisbatan qalbida chuqur hurmatni xis qiladi.

Shamol muallif asarlarida ba'zan el boshidan baraka sochuvchi, mayinligi va o'ynoqiligi bilan kayfiyatni ko'taruvchi, yo'l boshlovchi(Ozod) yoki aksincha yo'ldan adashtiruvchi(Shamoli kecha), ayrim hollarda jazolovchi oliy qudrat xususiyatlarini namoyon etadi.

"Sahroda hech qanday iz qolmadi, barchasi xuddi tarix kabi supirilib ketdi. Shamol lo'lilar karvonini ham qum bilan tamoman ko'mdi, ularning ayollari, bolalari va hatto ulovlari ham qalin va oq'ir qum qatlami ostida qolib ketdilar"[8].

XULOSA

Isajon Sultonning nasriy asarlar yaratishdagi yuksak mahorati uning hikoyalaridagi noan'anaviy uslubida yaqqol ko'zga tashlanadi. Voqealar oqimida hodisalarning shamol detali orqali kechishi, syujet chizig'idagi asosiy nuqtalarda shamol harakati ta'siri vositasida yozuvchi ijodiy loyihalaridagi jamiyat hayotining tabiat kultlari bilan uyg'unlashuvini ko'rish mumkin. Shamolning cheksiz imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda undan syujetning turli nuqtalarida ijobiy va salbiy holatlarni yoritishda foydalanadi. Bu esa o'z navbatida asar ta'sirchanligi, badiiy qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Y.Solijonov shamol yo'li:detaldan obrazgacha..Kitob dunyosi.9-10son.2023.14.06
2. N.S. Kamilova ISAJON SULTONNING ASARLARIDAGI SHAMOL OBRAZI TAHLILI International Conference on Developments in Education Hosted from Amsterdam, Netherlands <https://econferencezone.org> April 30th 2022
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-sofiya-hikoya>
4. H.A.Abdulxamidova. Isajon Sulton romanlarida xronotop.Dissertatsiya.2023.UO'K: 821.512.133.09-31.
5. Исажон Султон. Қорақуш юлдузнинг сири: роман қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: F.Фуллом, 2019